

TARJIMA HAQIDAGI UMUMIY QARASHLAR

A.Axtyamov - p.f.f.d. (PhD),

FarDU katta o‘qituvchi

M.Turg‘unova FarDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda tarjima haqida olimlarning umumiy nazariyalari hamda qarashlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjima nazariyasi, manba tili, tarjima qilinayotgan til, ekvilaentlik.

ОБЩИЕ СООБРАЖЕНИЯ О ПЕРЕВОДЕ

Абстракт. В данной диссертации обсуждаются общие теории и взгляды ученых на перевод.

Ключевые слова: перевод, теория перевода, исходный язык, переводной язык, эквивалентность.

GENERAL CONSIDERATIONS ABOUT TRANSLATION

Abstract. This dissertation discusses general theories and scholarly views on translation.

Key words: translation, translation theory, source language, target language, equivalence.

Hozirga kelib tarjimonlik faoliyati ancha ommalashgan sohalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning so‘nggi yillardagi Germaniya bilan iqtisodiy va siyosiy sohadagi faol hamkorligi ham o‘zbek va nemis tillarida tarjimonlar va ularning faoliyatiga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu muhim yo‘nalishlar esa, o‘z navbatida, sifatli tarjimalar va malakali tarjimonlarni talab qiladi.

Tarjima tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning ilk ildizlari antik davrlarga borib taqaladi. Ushbu tillararo amaliyotga u davrda ikkinchi darajali adabiy faoliyat sifatida qaralgan. Sitseron tarjimani dastavval oratorlik

mahoratini oshirishga yordam beruvchi mashg‘ulot deb hisoblagan. Biroq, u shug‘ullangan ushbu mashg‘ulot aynan hozirgi ma’nodagi tarjima faoliyati ekanligi yoki yo‘qligi o‘z isbotini topmagan¹. 1540-yilga kelibgina fransuz gumanisti, yozuvchi va tarjimon Etyen Dole fransuz tilida aynan hozirgi ma’nodagi tillararo amaliyot va amaliyotchini o‘z nomi bilan “*traducteur*” (tarjimon) va “*traduction*” (tarjima) deb atagan².

Etyen Dole Yevropada tarjima masalalariga bag‘ishlangan dastlabki asari bo‘lmish “Bir tildan boshqa tilga yaxshi tarjima qilish usullari haqida” nomli traktatida nafaqat “*tarjima*” atamasiga aniqlik kiritib o‘tgan, balki tarjima tushunchasining asosiy qoidalari haqida ham so‘z yuritgan. Ushbu traktatni batafsil o‘rganib, o‘zining “*Tarjima nazariyasi*” asarida tahlil qilgan N.K. Garbovskiy³ ushbu asosiy qoidalari markazida tarjima qilinayotgan til turganini ta’kidlaydi. Ya’ni uning nazariyasi bo‘yicha tarjimaning birinchi qoidasi tarjimada muallif fikri va tavsiflanayotgan predmetining mohiyatini to‘g‘ri berish kerakligi haqida bo‘lsa, qolgan barcha qoidalari faqatgina tarjima qilinayotgan tilning qoidalariiga amal qilish, ayniqsa, so‘z tanlash normasi, frazeologik birliklarni qo‘llash, gaplarning sintaktik qurilishi, matnga to‘g‘ri ifodalilikni bera oladigan tegishli nutq shakllarini tanlash kerakligi haqida bayon etilgan.

Hozirgi kunga kelib, tarjimaning bir qancha turli ta’riflari mavjud. Har bir tadqiqotchi ilmiy ishida o‘rganayotgan asosiy tushunchasiga o‘z ta’rifini berishi qoidaga aylangani ma’lumdir. Fransuz tarjimoni va tarjima nazariyotchisi E. Kari tarjimaning ta’riflaridagi o‘zgarishlarni quyidagicha tushuntiradi: “*Tarjima tushunchasi haqiqatan ham juda murakkab, chunki u nafaqat bizning zamonamizda shunday hayratlanarli xilma-xillikka ega bo‘lgan, balki asrlar davomida doimo o‘zgarib kelgan.* Ehtimol, aynan shu narsa ko‘plab mualliflarning o‘ylashlarini qiyinlashtirdi, ular o‘zlarining o‘tmishdoshlarining

¹ Гарбовский Н.К. Теория перевода: учебник и практикум для вузов. – Москва. 2007

² Qarang: Cary E. Les Grands traducteurs français. – Genève, 1963

³ Гарбовский Н.К. Теория перевода: учебник и практикум для вузов. – Москва. 2007

fikrlari bilan rozi bo‘lishlari yoki ularga qarshi chiqishlari bilan birga, ular doimo bir xil narsa haqida gapirmasliklarini sezmaydilar.⁴”

Dunyo olimlari ham tarjimani nazariy jihatdan o‘rganar ekanlar, tarjimaga turli tomondan qarab, turlicha ta’riflashgan. Zamonamiz olimlari Eugene Nida va Charles Taber o‘zlarining “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” nomli kitoblarida tarjimaga quyidagicha to‘xtalishgan: “Tarjima asl matnning uslubi, niyati va lingvistik ifodasini saqlab qolgan holda, manba tildagi matnning ma’nosini iloji boricha aniq tilga tarjima qilishdan iborat.⁵”

Tarjima atamisini aniqlashga qaratilgan ko‘plab urinislarda yondashuvlar va urg‘udagi farqlar ko‘zga tashlanadi. Nemis tarjimashunosi Radegundiz Shtolse⁶ tarjimani, aniqrog‘i tarjima jarayonini ta‘riflash uchun “atama” va “nomlash” hamda “*tertium comparationis*” (bu yerda “nazarda tutilgan ifoda”) dan foydalanadi: „Tarjima qilish – bu manba til belgisiga o‘tish, manba tilda nimani anglatishini topish va maqsad tilda nazarda tutilganidan foydalanib, maqsadli tilda xuddi shu narsaga tayinlangan maqsadli til belgisini topishdir“. Koller tarjimadagi qiyinchiliklarga ishora qiluvchi ta’rifni keltirish orqali qiziqarli nuqtai nazarni ta’kidlaydi⁷: “Tarjima – bu shunchaki manba matnni maqsadli tilning lingvistik-stilistik vositalari va imkoniyatlari bilan qaramaqarshi qo‘yish emas, aksincha, tarjimonning ba’zan bir-biriga zid bo‘lgan, kelishish qiyin bo‘lgan shartlar va omillarning butun turkumi bilan to‘qnashuvi, har bir tarjima nazariyasi muhokama qilishi va tarjimalarning har bir tahlili hisobga olinishi kerak.

Edmon Kari⁸, Hans Shtorig⁹ kabi yetakchi tarjimonlar XX asrni tarjima asri deb atagan bir vaqtda, yurtimizda ham tarjimonlik faoliyati ancha olg‘a qadam bosdi. Bu jarayonda faol bo‘lgan olimlar, nazariyotchilar orasida tarjimaning bir-biridan ayri holdagi ikki tarmog‘i paydo bo‘lgan. Birinchisi badiiy tarjima

⁴ Cary E. Comment faut-il traduire? Lille, 1986. P. 81.

⁵ Nida E.A., Taber Ch.R. The theory and practice of translation. Brill Leiden, Boston. 2003.

⁶ Stolze, Radegundis: Die Fachübersetzung: eine Einführung. Tübingen 1999 (Narr Studienbücher).

⁷ Koller, Werner: Einführung in die Übersetzungswissenschaft. 4., völlig neu bearb. Aufl. Heidelberg, Wiesbaden 1992 (UTB für Wissenschaft: Uni-Taschenbücher 819).

⁸ E. Cary. Quality .in Translation. Bad Godesberg, 1959, p.V.

⁹ Störig H.J. Das Problem des Übersetzens, hrsg. V. Stuttgart, 1963, S. XIII.

nazariyasi bo'lsa, ikkinchisi tarjimaning lingvistik nazariyasi edi. „Birinchi nazariya diqqat-e'tiborida badiiy tarjima estetikasi, tarjimaning san'at, so'z san'atining bir ko'rinishi ekanligi tursa, ikkinchisida tarjima umumiy tilshunoslik, leksikologiya, grammatika, ayrim tillar stilistikasi bilan bog'liq ravishda yoritiladi¹⁰“.

Tarjima to'g'risidagi fikrlarning xilma-xilligi, hatto mutaxassislar orasida ham ikkilanishlarga sabab bo'ladi.

Rus nazariyotchisi Garbovskiy esa tarjima so'ziga ta'rif berar ekan, uning ko'p ma'noga ega ekanligini va aynan ushbu ilmiy jarayonda uning hech bo'limganda ikkita farqli tushunchalarni ifodalashini anglash lozimligi yozadi: “Tarjima, bu – intellectual faoliyat, ya'ni jarayon va ushbu jarayonning natijasi bo'lmish tarjima, ya'ni faoliyat mahsuli, boshqacha aytganda, tarjimon tomonidan yaratilgan nutq birligidir.¹¹”

Rus tarjima nazariyasining yetuk olimlaridini biri bo'lgan Komissarov¹² tarjimaning murakkabligini ta'kidlab, u so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish bilan cheklanib qolmasdan, balki asl matnning ma'nosи, mazmuni va nuanslarini saqlashni ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, asl matnning o'ziga xos nuanslari va mo'ljallangan xabarni tarjima qilinayotgan tilda to'g'ri yetkazish uchun uni chuqur tushunish muhimdir. Komissarovning ta'kidlashicha, tarjima oddiy so'zma-so'z o'rnini bosish emas, balki lingvistik tajriba va madaniy tushunishni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Barxudarov¹³ tarjima nazariyasiga qo'shgan hissasi, xususan, tarjimada semiotikaning ahamiyatini ta'kidlagani bilan mashhur edi. U lingvistik belgilarning ahamiyatini va ularning manba va tarjima tillarida talqin qilinishini ta'kidlaydi. Barxudarov ma'noni shunchaki so'z emas, balki belgilar orqali yetkazish, to'g'ri tarjimalarni yetkazish uchun tarjimonlar kengroq kontekst,

¹⁰ Jo'rayev K. Tarjima san'ati. – Toshkent: Fan, 1982. – 60 b.

¹¹ Н.К. Гарбовский. Теория перевода. Издательство московского университета, 2007. Стр.7

¹² Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. - М.: Высшая школа, 1990. - 253 с.

¹³ Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. - М.: Международные отношения, 1975. - 240 с.

madaniy konnotatsiyalar va tilning pragmatik jihatlarini qanday tushunishlari kerakligini muhokama qildi. U tarjima mexanik jarayon emas, balki turli til va madaniy tizimlar doirasidagi belgilar va ularning talqinlarining murakkab o‘zaro ta’siri ekanligini ta’kidladi.

A.D. Shveyser esa tarjima atamasiga batafsilroq to‘xtalib, unga chuquqrroq ta’rif bergan: „Tarjimani quyidagicha ta’riflash mumkin: tillararo va madaniyatlararo muloqotning bir yo‘nalishli va ikki bosqichli jarayoni, bunda maqsadli (“tarjima”) tahlil qilingan asosiy matn asosida ikkinchi darajali matn (metamatn) yaratilib, ushbu birlamchi manba matni o‘rnini boshqa bir lingvistik va madaniy muhit egallaydi... Ikki til, ikki madaniyat va ikki kommunikativ vaziyat o‘rtasidagi tafovutlar bilan qisman o‘zgartirilgan asosiy matnning kommunikativ ta’sirini o‘tkazish bo‘yicha o‘rnatish bilan tavsiflangan jarayon.¹⁴“

Tarjimaning lingvistik aspektini o‘sha davrdayoq yoqlab chiqqan leningradlik olim A. Federov, hattoki tilshunoslik va matematika fanlarining ilgari tasavvur ham qilinmagan hamkorligi ro‘y berayotgan bir davrda, tarjimaning ham turli sohalarga kirib borayotganligini rad etish qoloqlik, zamondan orqada qolish deb hisoblagan¹⁵.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tarjima, umuman tarjima jarayoni turli davrlarda turli olimlar tomonidan turlicha ta’riflangan bo‘lsada, uning xarakteri deyarli bir xildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гарбовский Н.К. Теория перевода: учебник и практикум для вузов. – Москва. 2007
2. Cary E. Les Grands traducteurs français. – Genève, 1963
3. Cary E. Comment faut-il traduire? Lille, 1986. P. 81.
4. Nida E.A., Taber Ch.R. The theory and practice of translation. Brill Leiden, Boston. 2003.

¹⁴ Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. М., 1988. С. 75.

¹⁵ Чуковский К. Мастерство перевода. – Москва. 1966. – с. 472.

5. Stolze, Radegundis: Die Fachübersetzung: eine Einführung. Tübingen 1999 (Narr Studienbücher).
6. Koller, Werner: Einführung in die Übersetzungswissenschaft. 4., völlig neu bearb. Aufl. Heidelberg, Wiesbaden 1992 (UTB für Wissenschaft: Uni-Taschenbücher 819).
7. Cary E. Quality in Translation. Bad Godesberg, 1959, p.V.
8. Störig H.J. Das Problem des Übersetzens, hrsg. V. Stuttgart, 1963, S. XIII.
9. Jo‘rayev K. Tarjima san’ati. – Toshkent: Fan, 1982. – 60 b.
10. Гарбовский Н.К. Теория перевода. Издательство московского университета, 2007. Стр.7
11. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. - М.: Высшая школа, 1990. - 253 с.
12. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. - М.: Международные отношения, 1975. - 240 с.
13. Ахтямов А. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И ИХ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 131-135.
14. Ахтямов А. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И РАЗВЕРТЫВАНИЕ ТЕМЫ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 123-126.
15. Akhtyamov A.E. АНАЛИТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ТРАНСКРИПЦИИ РАЗГОВОРОВ ПРИ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ ТЕЛЕВИЗИОННОЙ РЕКЛАМЫ // The Way of Science. – 2022. Т. 6. № 100. – С. 51-53.